

## 2021- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2021- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmi



Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmining o'sish  
sur'atlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5109,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1149,0 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,5 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

### Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdarligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar-iyun oylarida)


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 109,3</b>	<b>117,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	266,9	107,4
Moliyaviy xizmatlar	890,7	124,1
Transport xizmatlari	942,8	117,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	863,8	116,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	107,0	114,7
Savdo xizmatlari	1 614,0	108,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	132,5	123,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	243,6	131,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	114,2	143,6
Ijara xizmatlari	122,4	132,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	145,5	126,2
Shaxsiy xizmatlar	326,2	126,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	76,1	127,2
Boshqa xizmatlar	127,4	124,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 31,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,5 %), moliyaviy xizmatlar (17,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,2 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi  
(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)**




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'Imagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'Imagan ulush Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 2,2 %, yashaah va ovqatlanish xizmatlari - 2,1 % ga to'g'ri keldi.

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (31,6 %), transport xizmatlari (18,5 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (17,4 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

### Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi




Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 91,7 % ni tashkil etdi.

Omborxona va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 8,0 % ni tashkil etdi.

Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,3% ni qayd etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

## Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2021-yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 76,0 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*



Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosi,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi 78,2 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 16,5 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Kosonsoy (116,0 %), Norin (110,6 %), Yangiqo'rg'on (111,8 %), Uychi (110,9 %) va Mingbuloq (110,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

## Moliyaviy xizmatlar (2021-yilning yanvar-iyun oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 890,7 mlrd. soʻmni - tashkil etdi.**


**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ularning hajmi 686,7 mlrd. soʻmga teng boʻldi.



**Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 17,4 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.

**Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 204,0 mlrd. soʻmga koʻpayishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning oʼsishi 24,1 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar- iyun oylarida ularning oʼsish surʼati 130,7 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʼlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʼyicha xizmatlari uchun toʼlanadigan haq hisobiga koʼra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni koʼrsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2021 yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 890,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 124,1 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (91,2 %) tashkil etadi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 243,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,3 % ni tashkil etdi.




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 114,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 107,0 mlrd. so'mga teng bo'lган.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,1 % ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 26,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

## Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar***(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*

2021- yilning yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmat-larning hajmi 114,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 2,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 143,6 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Telefon: 211-72-00(50-90)